



**ELEKTRON RAQAMLI IMZODAN FOYDALANISH SOHASI HAMDA
DAVLAT TOMONDAN TARTIBGA SOLISH ASOSLARI**

Hamroyev Aslbek Azamatovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

2-bosqich talabasi,

Email: aslbekhamroyev697@gmail.com

Annotatsiya: *Elektron raqamli imzodan foydalanish hamda uning shaxs tomonidan qo'lda qo'yilgan imzodan qanday afzalliklari bor ekani, Shuningdek, bugungi raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgan davrda davlat boshqaruvining ko'plab sohalari elektron texnologiyalar tizimidan jumladan, Elektron raqamli imzodan foydalanishi va ushbu tizimni keng tarqalishi jamiyat hayotidagi o'rni. Elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini olish, undan jismoniy va yuridik shaxslarning qanday tartibda foydalanishi, elektron hujjatlar hamda uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo'lgan axborot tizimlari, Elektron raqamli imzodan foydalanishda davlat siyosatining yo'nalishlari kabilarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *Elektron raqamli imzo, raqamli transformatsiya, elektron raqamli imzo kaliti, imzo kalitining sertifikatini, elektron hujjat, texnik hamda dasturiy vosita, bulutli texnologiyalar, Ro'yxatga olish markazi, dasturiy-apparat.*

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida elektron hujjatlar hamda bulutli texnologiyalar va turli sun'iy intellekt vositalaridan davlat boshqaruvi sohasida keng foydalanib kelinmoqda. Ushbu yana bir zamonaviy tizimlardan biri bu – elektron raqamli imzo hamda uning davlat boshqaruvidagi rolini ko'rib chiqamiz.

Elektron raqamli imzo (ERI) — bu elektron hujjatni imzolovchi shaxsni identifikatsiyalash va hujjatning butligini kafolatlashga xizmat qiluvchi kriptografik usuli hisoblanadi. Zamonaviy davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar keng tarqalib borar ekan, ERI davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vositaga aylanmoqda. U nafaqat byurokratik jarayonlarni soddalashtirish, balki fuqarolar va biznes sub'ektlari uchun xizmatlarni onlayn shaklda, xavfsiz va ishonchli tarzda taqdim etishda hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Elektron raqamli imzo — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzoga aytiladi. Shuningdek, o'ziga elektron raqamli imzosining kalitiga ega bo'lgan jismoniy hamda yuridik shaxs, elektron raqamli imzo kalitining egasi bo'ladi. Agar shaxs yuqoridagi holatlarga amal qilgan bo'lsa, elektron hujjatdagi elektron imzo qog'oz hujjatga qo'lda qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga ega



bo'ladi. Elektron raqamli imzo vositalari elektron hujjatda elektron raqamli imzo yaratilishini, elektron raqamli imzoning haqiqiyliги tasdiqlanishini, elektron raqamli imzoning yopiq va ochiq kalitlari yaratilishini ta'minlaydigan texnik va dasturiy vositalar majmuidan iborat bo'ladi. Shuningdek, Elektron raqamli imzo vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda axborot xavfsizligi talablariga muvofiq sertifikatlashtirilishi kerak. ERI dan foydalanish sohasidagi barcha standartlar, normalar hamda qoidalar O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar uchun elektron raqamli imzoni olish tartibini ko'rib chiqamiz:

1. Ariza beruvchi YaIDXPda ro'yxatdan yoki avtorizatsiyadan o'tadi;
2. Tegishli maydonga shaxsiy telefon raqami kiritiladi va arifmetik amal bajariladi;
3. Tegishli hudud, tuman tanlanadi va shaxsiy telefon raqamiga kelgan tasdiqlash kodi kiritiladi;
4. Hujjatlar ilova qilinadi hamda ERI kaliti paroli o'ylab topiladi hamda so'rov bilan tanishiladi va imzolaniadi;
5. To'lov amalga oshiriladi;

ERI kalitidan foydalanish uchun shaxsiy kompyuter yoki telefonga "E-imzo" dasturi o'rnatilishi kerak. Shuningdek, bunga ma'sul bo'lgan tashkilot bu – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Ushbu xizmatni amalga oshirish muddati 1 ish kuni hisoblanadi hamda siz shaxsni tasdiqlovchi hujjat bilan borishingiz lozim. ERI ni olish pulik bo'lib bu bazaviy hisoblash miqdorining 7 foizini tashkil etadi.

Davlat boshqaruvida elektron raqamli imzo nafaqat hujjatlarni tasdiqlash vositasi, balki tartibga solishning asosiy vositasi sifatida ishlatiladi. ERI orqali davlat tomonidan tartibga solish quyidagi asoslar bilan amalga oshiriladi. Bular davlat ERI yordamida hujjatlar va elektron ma'lumotlarni qonuniy asosda tartibga solidi hamda hujjatning haqiqiyliги va imzolangan shaxsning aniqligi elektron imzo orqali kafolatlanadi, bu barcha elektron jarayonlarni qonuniy qiladi. ERI yordamida kim qaysi hujjatni va qachon tasdiqlaganini aniqlash mumkin, bu davlat idoralari faoliyatida shaffoflikni oshiradi, hisobdorlikni ta'minlaydi va noqonuniy harakatlarning oldini oladi. Elektron imzo ma'lumotlarni shifrlash orqali uzatilishini ta'minlaydi va hujjatning o'zgartirilmaganligini kafolatlaydi, shu orqali davlat elektron hujjatlar bilan ishlashda xavfsizlikni tartibga soladi. ERI davlat xizmatlarini elektron shaklda masofadan boshqarish imkonini beradi, bu esa jarayonlarni tezlashtiradi, qog'ozsiz ish faoliyatini rivojlantiradi va fuqarolar uchun qulaylik yaratadi. ERI orqali tasdiqlangan hujjatlar va qarorlar osonlik bilan tekshiriladi va huquqiy shaffoflikni ta'minlaydi, bu davlat tomonidan tartibga solish jarayonini adolatli va aniq qiladi. Shunday qilib, elektron raqamli imzo davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositasi bo'lib, qonuniylik, shaffoflik, xavfsizlik va tezkorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, ERI yordamida davlat idoralari fuqarolar va tashkilotlar bilan samarali va ishonchli elektron munosabatlar o'rnatadi.



Xalqaro tajribalardan ham shuni ko'rsak bo'ladiki, Yaponiya raqamli boshqaruvda yuqori o'rinlarni egallaydi. BMTning Elektron-hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) 2024-yilgi reytingida Yaponiya 193 mamlakat orasida 13 - o'rinni egallagan hamda, 2022-yilda "e-qatnashish indeksi" bo'yicha Yaponiya 1 - o'rinni qo'lga kiritib, yaponiyaning raqamli ochiqlik va fuqarolar ishtirokini ham yuksak baholaydi. My Number kartasi va e-portal dasturlari orqali xizmatchilar va fuqarolar ko'plab arizalarni Internetda imzolash imkoniga ega bo'ladilar bu yondashuv ma'muriy samaradorlikni oshirib, Yaponiya uchun yetakchi elektron hukumat rivojlangan davlatlar darajasiga erishishga yordam beradi.

ERIning davlat tomonidan tartibga solishning asoslarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, elektron hujjatni imzolash ya'ni masofadan turib davlat xizmatlaridan va davlat organlari, tashkilotlarning boshqa turli ma'muriy ta'moillar hamda xizmatlardan elektron shaklda foydalanish imkoniyati. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari orqali bugungi kunda 300 dan ortiq elektron davlat xizmatlari taqdim etilmoqda. Shulardan 130 dan ortig'i elektron raqamli imzoni talab qiladi. 2021 yilda Yagona portaldagi elektron davlat xizmatlaridan masofaviy foydalanish maqsadida mazkur xizmatlar orqali 9,2 mln.ta ariza kelib tushgan. 2026 yilga borib, 700 dan ortiq davlat xizmatlari Yagona portal orqali elektron shaklda taqdim etib borilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Prezidentimizning "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gm hamda "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari bilan elektron raqamli imzo kalitlari infratuzilmasini xalqaro talablarga moslashtirish hamda uchinchi ishonchli tomon, bulutli elektron raqamli imzo tushunchalarini amaliyotga joriy etishni, chet davlatlarning elektron raqamli imzolar kalitlari sertifikatlarini O'zbekiston Respublikasi hududida tan olish bo'yicha qoidalarni kiritishni nazarda tutgan holda bu boradagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, "elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririni ishlab chiqish belgilangan. "elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqilishi hamda mazkur qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida birinchi o'qishda qabul qilinib, ayni kunlarda ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda. Ushbu qabul qilinayotgan qonun loyihasidagi normalar elektron o'zaro hamkorlik ishtirokchilariga qulaylik yaratish va elektron raqamli imzodan foydalanishda yuzaga keladigan to'siqlarning oldini olishga qaratilgan bo'lib, elektron raqamli imzodan foydalanish rolini kuchaytirish, jamiyatda elektron raqamli imzoning huquqiy ahamiyatini kuchaytirilishini ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, elektron raqamli imzo kalitlari sertifikatlarini qog'oz ko'rinishda berishni bekor qilish orqali foydalanuvchilarga elektron raqamli imzo kalitlarini berish jarayoni soddalashtirish va tezlashtirish bu esa elektron davlat xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlarini oshiradi.

Shuni aytib o'tishimiz lozimki, Elektron raqamli imzo hamda raqamlashtirish tizimlaridan foydalanishdan maqsad, undan foydalanishni soddalashtirish hamda aholining kundalik hayotini yengillashtirish hisoblanadi. Agarda, elektron imzoni borib olish



imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslarlar uchun platformalar ham yaratib qo‘yilgan bu esa ularning sarf-xarajatlari va vaqtini tejashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi qonuni, 12.10.2022 yildagi O‘RQ-793-son.
2. Oliy majlis qonunchilik palatasining elektron raqamli imzodan foydalanishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda to‘g‘risidagi qonun loyihasi. 11.01.2023.
3. “A framework of blockchain-based secure and privacy-preserving E-government system” blokcheyn va e-hukumat.
4. “Transforming EU Governance: The Digital Integration through EBSI and GLASS” raqamli fuqarolik hamyonlari va e-ID.
5. <https://parliament.gov.uz/ru/articles/514>
6. <https://e-imzo.soliq.uz/getting/step-1>
7. <https://help.crpt-turon.uz/hc/uz/articles/7427589536785-E-Imzo-elektron-raqamli-imzoni-olish-va-undan-foydalanish>
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektron_raqamli_imzo



**BIOLOGIYA FANIDA SOXTA MA'LUMOTLARNING TARQALISHIGA
QARSHI MEDIA SAVODXONLIGINING O'RNI**

Xasanova Honzoda

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanida soxta yoki tekshirilmagan ma'lumotlarning keng tarqalishi, ularning o'quv jarayoni hamda jamiyatdagi ilmiy savodxonlikka salbiy ta'siri tahlil qilingan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ochiq platformalardagi noto'g'ri biologik ma'lumotlarning tarqalish sabablari, ularni aniqlashning zamonaviy yondashuvlari hamda media savodxonlikning bu boradagi o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Maqola biologiya o'qituvchilari, talabalar va ilmiy izlanish olib boruvchi yoshlar uchun amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Media savodxonlikni shakllantirish orqali soxta ilmiy ma'lumotlarni tanib olish, tahlil qilish hamda ulardan himoyalash mexanizmlarini kuchaytirish usullari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: media savodxonlik, biologiya fanlari, soxta ilmiy ma'lumotlar, faktcheking, ilmiy tafakkur, informatsion xavfsizlik, ta'lim.

Annotation: This article analyzes the spread of fake and unverified information in the field of biology, as well as its negative impact on the learning process and public scientific literacy. It outlines the main causes of misinformation circulating on the internet, social media, and open platforms, and highlights the key role of media literacy in identifying and counteracting such false biological claims. The paper provides practical recommendations for biology teachers, students, and young researchers. It emphasizes the importance of developing media literacy skills to recognize, evaluate, and protect against the influence of misleading scientific content.

Keywords: media literacy, biological sciences, misinformation, fact-checking, scientific thinking, information security, education.

Kirish

Hozirgi axborot asrida biologiya faniga oid ma'lumotlar internetda keng tarqalmoqda. Afsuski, ulardan katta qismi ilmiy jihatdan tekshirilmagan, noto'g'ri yoki ataylab buzilgan shaklda bo'ladi. Soxta ma'lumotlarning tez tarqalishi nafaqat o'quvchilarni, balki o'qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikni ham chalg'itadi. Shu sababli biologiya sohasida media savodxonlikning o'rni nihoyatda muhimdir.

Biologiyada soxta ma'lumotlarning asosiy turlari

1. Ilmiy asosga ega bo'lmagan taxminlar — masalan, genlar haqida noto'g'ri tushunchalar (“GMO odamni o'zgartiradi”, “DNKni iste'mol qilish xavfli”).
2. Biologik atamalarning noto'g'ri talqini — terminlardagi chalkashliklar keng tarqalgan.
3. Tibbiy-biologik sohada yolg'on reklama — dorilarni “mo'jizali ta'sirga ega” deb ko'rsatish.



4. Fotoshop va montaj qilingan tasvirlar — hayvonlar yoki mikroorganizmlar haqida yolgʻon tasvirlar.

5. Statistik maʼlumotlarning buzib berilishi — ilmiy tadqiqotlar natijalarining notoʻgʻri tarjimasini.

Soxta biologik maʼlumotlarning tarqalish sabablari

Odamlarning ilmiy tafakkur darajasi pastligi

Tekshirilgan va tekshirilmagan manbani farqlay olmaslik

Ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmlarning sensatsion maʼlumotlarni targʻib qilishi

Reklama va tijoriy manfaatlar

Biologiyaning murakkabligi (koʻp terminlar, jarayonlar)

Media savodxonlikning biologiyadagi oʻrni

Media savodxonlik — bu maʼlumotni tanqidiy qabul qilish, manbalarni tahlil qilish, faktlarni tekshira olish va yolgʻon axborotni aniqlash qobiliyatidir. Biologiyada media savodxonlik quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Manbani tahlil qilish koʻnikmasini shakllantiradi

Oʻquvchilar ilmiy maqola, blog, ijtimoiy tarmoqdagi post yoki videoning qaysi manbaga tegishli ekanini baholay oladi.

2. Soxta ilmiy daʼvolarni aniqlashga yordam beradi

Faktcheking usullari bilimli oʻquvchi va oʻqituvchilarga quyidagilarni ajratib olishga imkon beradi:

ilmiy asoslangan maʼlumot,

taxmin,

yolgʻon xabar.

3. Ilmiy tafakkurni rivojlantiradi

Tanqidiy fikrlash — biologiyaning barcha boʻlimlarida muhim. Media savodxonlik esa aynan shuni mustahkamlaydi.

4. Oʻquv jarayonini boyitadi

Media savodxonlikka ega oʻquvchi:

internetdagi maʼlumotlarni saralay oladi,

ilmiy tajribalarni toʻgʻri talqin qiladi,

notoʻgʻri videolar yoki postlarga ishonmaydi.

5. Jamiyatda ilmiy madaniyatni oshiradi

Soxta maʼlumotlarga ishonish pandemiya, ekologik muammolar, oziq-ovqat xavfsizligi kabi masalalarda notoʻgʻri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Media savodxonlikni oshirish boʻyicha tavsiyalar

Oʻqituvchilar uchun:

darslarda ilmiy manbalarni tekshirish boʻyicha mashqlar berish;

notoʻgʻri biologik maʼlumot namunalari asosida tahliliy topshiriqlar tuzish;

faktcheking saytlaridan foydalanishni oʻrgatish.

Oʻquvchilar uchun:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



manbani tekshirish, muallif haqida ma'lumot topish;

ilmiy maqolalarni o'qish va ularni tahlil qilish;

ilmiy videolarni rasmiy kanallardan olish;

shubhali ma'lumotni darhol ulashmaslik.

Jamiyat uchun:

ommaviy axborot vositalarida ilmiy savodxonlikni targ'ib qilish;

biologiya bo'yicha mutaxassislar bilan suhbatlar tashkil etish;

ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy va ishonchli manbalarni ko'rsatish.

Xulosa

Biologiya fanida soxta ma'lumotlarning tarqalishi ta'lim sifati, sog'liqni saqlash, ekologiya va jamiyat xavfsizligi uchun jiddiy muammodir. Media savodxonlikni rivojlantirish orqali ushbu muammoga samarali kurashish, ilmiy fikrlashni mustahkamlash va jamiyatning umumiy ilmiy madaniyatini yuksaltirish mumkin. Shuning uchun har bir o'qituvchi, o'quvchi va ota-ona media savodxonlikka alohida e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Potter, W. J. (2016). Media Literacy. SAGE Publications.
2. Lewandowsky, S., Ecker, U. K., & Cook, J. (2017). "Beyond Misinformation: Understanding and Coping with the 'Post-Truth' Era." Journal of Applied Research in Memory and Cognition, 6(4), 353–369.
3. Vraga, E. K., & Bode, L. (2020). "Defining Misinformation and Understanding Its Harms in the Modern Media Environment." Annals of the International Communication Association, 44(2), 1–12.
4. Tsaliki, L., & Chrona, S. (2019). Youth Digital Media and Health Literacy. Palgrave Macmillan.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2020). Biologiya fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent.
6. Scheufele, D. A., & Krause, N. M. (2019). "Science Audiences, Misinformation, and Fake News." Proceedings of the National Academy of Sciences, 116(16), 7662–7669.
7. UNESCO. (2021). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. UNESCO Publishing.
8. Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). "Social Media and Fake News in the 2016 Election." Journal of Economic Perspectives, 31(2), 211–236.
9. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2018). Biologiya bo'limi. Toshkent: "UzME" nashriyoti.
10. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. Council of Europe.